

MAJBURIY TIBBIY KO'RIK DAN O'TMAGAN XODIMNI ISHDAN CHETLASHTIRISHNING HUQUQIY MUAMMOLARI

Elmurodov Xusan Elmurodovich

Toshkent davlat yuridik universiteti mustaqil izlanuvchisi

E-mail: Husan.elmurodov@mail.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21428277>

Tibbiy ko'rikdan o'tish muayyan kasblar va lavozimlarda ishlashning zaruriy sharti bo'lib hisoblanadi. Mehnat qonunchiligida tibbiy ko'rikdan o'tish bilan bog'liq huquqiy normalar o'rnatilgan bo'lib, ular ish beruvchilar va xodimlarning tibbiy ko'rikdan o'tish bo'yicha huquq va majburiyatlarini doirasini, tibbiy ko'rikdan o'tmaganlik uchun kelib chiqishi mumkin bo'lgan huquqiy oqibatlarni belgilab bergan.

O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 151-moddasida xodimning majburiy tibbiy ko'rikdan o'tmaganligi ishdan chetlashtirish asoslaridan biri sifatida nazarda tutilgan. Ta'kidlash lozimki, xodimni mazkur asos bilan ishdan chetlashtirishda qonunchilikda va amaliyotda bir qator muammolar mavjud. Xususan, majburiy tibbiy ko'rikdan o'tish bilan bog'liq xarajatlarni ish beruvchilar tomonidan qoplanmasligi, tibbiy ko'rikdan o'tmagan xodimlarning ishga qo'yilishi yoki ishni davom ettirishga ruxsat berilishi, tibbiy ko'rikdan o'tmagan xodimlarni ishdan chetlashtirish muddatlarining aniq emasligi bilan bog'liq muammolar shular jumlasidandir.

O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi, O'zbekiston Respublikasining "Aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi to'g'risida"gi, "Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida"gi, "Fuqarolar sog'lig'ini saqlash to'g'risida"gi qonunlari, Sog'liqni saqlash vazirining 2012 yil 10 iyuldagi 200-sonli "Xodimlarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi buyrug'i tashkilotlarda xodimlarni dastlabki tarzda va keyinchalik ish davomida davriy tibbiy ko'rikdan o'tkazish tartibini belgilaydi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 360-moddasida majburiy tibbiy ko'rikdan o'tishi lozim bo'lgan xodimlar toifalari sanab o'tilgan. Mazkur moddaning birinchi qismiga muvofiq ish beruvchi quyidagilarni dastlabki (mehnat shartnomasini tuzayotganda) va davriy (mehnat faoliyati davomida) majburiy tibbiy ko'rikdan o'tkazishni tashkil qilishi shart:

o'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxslarni;

umumiy belgilangan pensiya yoshiga yetgan shaxslarni;

nogironligi bo'lgan shaxslarni;

mehnat sharoitlari noqulay bo'lgan ishlarda, tungi ishlarda, shuningdek transport vositalarining harakati bilan bog'liq ishlarda band bo'lganlarni;

oziq-ovqat sanoatida, savdoda va bevosita aholiga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan boshqa tarmoqlarda ish bilan band bo'lganlarni;

umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarining, maktabgacha ta'lim tashkilotlarining va boshqa tashkilotlarning bevosita bolalarga ta'lim yoki tarbiya berish bilan band bo'lgan pedagog xodimlarni va boshqa xodimlarni.

O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 360-moddasi ikkinchi qismiga ko'ra mehnat sharoitlari noqulay bo'lgan ishlarning hamda bajarilayotganda dastlabki va davriy majburiy tibbiy ko'riklar o'tkaziladigan boshqa ishlarning ro'yxati va ushbu ko'riklarning o'tkazilish tartibi O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan belgilanadi. Mazkur normani amalga oshirish maqsadida Sog'liqni saqlash vazirining 2012-yil 10-iyuldagi 200-sonli "Xodimlarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2012-yil 29-avgustda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 2387) Nizomni tasdiqlash haqidagi buyrug'i qabul qilingan[1]. Mazkur Nizom tibbiy ko'rikdan o'tishi

shart bo'lgan lavozimlarga ega bo'lgan tashkilotlarga taalluqli bo'lib, davriy tibbiy ko'riklar ish davrida o'tkaziladi hamda ushbu davrda xodimning ish joyi va o'rtacha ish haqi saqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 360-moddasiga asosan ish beruvchi ushbu Kodeksga muvofiq tibbiy ko'rikdan o'tishi shart bo'lgan xodimlarni, shu jumladan Xodimlarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomning 1,2,3-ilovalarida keltirilgan ro'yxatlarda nazarda tutilgan ishlardagi xodimlarni tegishli ravishda mehnat shartnomasi tuzish vaqtida dastlabki tarzda va ish davomida davriy ravishda tibbiy ko'rikdan o'tkazishni tashkil qilishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 414-moddasiga asosan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan shaxslar dastlabki majburiy tibbiy ko'rikdan o'tganidan keyin ishga qabul qilinadi va keyinchalik ular o'n sakkiz yoshga to'lguniga qadar har yili majburiy tibbiy ko'rikdan o'tishi lozim. Ish beruvchilar voyaga yetmaganlarning mehnatidan foydalanishda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 14-iyuldagi 290-son qarori bilan tasdiqlangan "O'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxslarning mehnatidan foydalanilishi taqiqlangan og'ir ishlarning hamda zararli yoki xavfli mehnat sharoitlaridagi ishlarning ro'yxati[2]", shuningdek Adliya vazirligida 2010-yil 21-yanvarda ro'yxatdan o'tkazilgan Voyaga yetmaganlarning mehnatidan foydalanishga yo'l qo'ymaslik bo'yicha talablar to'g'risidagi Nizom qoidalariga amal qilishi talab etiladi[3].

O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 426-moddasiga asosan nogironligi bo'lgan shaxslar faqat dastlabki majburiy tibbiy ko'rikdan o'tganidan keyin ishga qabul qilinadi va keyinchalik har yili majburiy tibbiy ko'rikdan o'tkazib turilishi lozim.

Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 501-moddasiga ko'ra umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarining, maktabgacha ta'lim tashkilotlari hamda boshqa tashkilotlarning bolalarni o'qitish yoki tarbiyalash bilan bevosita shug'ullanuvchi pedagog xodimlari va boshqa xodimlari O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan tartibda dastlabki tarzda (ishga qabul qilish chog'ida) va davriy (ish jarayonida) majburiy tibbiy ko'riklardan o'tadi. O'zbekiston Respublikasining "Pedagog maqomi to'g'risida"gi Qonunining 6-moddasiga asosan pedagog xodimlarga davlat sog'liqni saqlash muassasalarida bepul tibbiy ko'rikdan o'tish (davlat ta'lim muassasalari va tashkilotlari uchun) huquqi berilgan. Ushbu Qonunning 7-moddasida pedagog xodimlar majburiy tibbiy ko'rikdan o'z vaqtida o'tishlari lozim.

Huquqshunos olim Sh.Ismoilovning ta'kidlashicha, ta'lim tashkilotlari hamda ularda ishlovchi pedagog va boshqa xodimlarni majburiy tibbiy ko'rikdan o'tkazishda bolalarni o'qitish va tarbiyalashda ishtirok etuvchilar nazarda tutiladi[4]. Shuningdek, huquq sohasidagi ekspert M.Kudryashovning qayd etishicha, "faoliyati bolalarni o'qitish va tarbiyalash bilan bog'liq bo'lgan barcha xodimlar" iborasi ma'lum bir xodimlar toifasini emas, balki shunday tashkilotda ishlovchi barcha xodimlarni qamrab oladi hamda bolalar deganda o'n sakkiz yoshga to'lmagan voyaga yetmaganlar nazarda tutiladi[5]. Bundan tashqari umumrossiya ta'lim kasaba uyushmalarida e'lon qilingan maqolada turli yoshdagi (voyaga yetgan va voyaga yetmagan) o'quvchilar o'qiydigan ta'lim muassasalarida ishlovchi pedagog xodimlarning tibbiy ko'rikdan o'tishi majburiy emas, ular faqat zararli va xavfli mehnat sharoitlarida ishlagan taqdirdagina bunday ko'rikdan o'tishlari lozim bo'ladi[6]. Shunday qilib, oliy ta'lim tashkilotlarida ishlovchi pedagog xodimlarni majburiy tibbiy ko'rikdan o'tishi istisno etiladi, biroq amaliyotda ularni bunday tibbiy ko'rikdan o'tishga majburlashlar ancha keng tarqalgan.

O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 500-moddasiga asosan transport xodimlari ishga qabul qilinish chog'ida va ish jarayonida majburiy tibbiy ko'riklardan o'tadi.

Xuddi shunday talab sportchilarga ham tegishli bo'lib, mehnat shartnomasini tuzish chog'ida sportchilar dastlabki majburiy tibbiy ko'rikdan o'tishlari shart.

Xodimlarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomga muvofiq xavfli va zararli moddalar ta'siri natijasida ishlovchi xodimlar (1-iloa), mehnat sharoiti noqulay ishlarda (2-iloa), oziq-ovqat sanoatida, savdo va bevosita aholiga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan boshqa tarmoqlarda band bo'lgan, shuningdek umumta'lim maktablari, maktabgacha ta'lim va boshqa muassasalarning bevosita bolalarga ta'lim va tarbiya berish bilan shug'ullanuvchi pedagoglar va boshqa xodimlar(3-iloa) dastlabki va davriy tibbiy ko'rikdan o'tkazilishi majburiy hisoblanadi.

Xodimlarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomning 2-bandida mazkur Nizom talablari boshqa qonunchilik hujjatlariga muvofiq tibbiy ko'rikdan o'tkaziladigan xodimlar toifasi uchun qo'llanilmaydi deb ko'rsatilgan. Ayrim soha xodimlari uchun tibbiy ko'rikdan o'tkazish tartibi ular mehnatining xususiyatini inobatga olgan holda alohida normativ hujjatlar bilan tartibga solingan. Xususan, Sog'liqni saqlash vazirligi va Transport vazirligining 2022-yil 31-avgustdagi 19, 15-son "Temir yo'l transporti xodimlarining tibbiy ko'rigini tashkil etish va o'tkazish qoidalarini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori qabul qilingan bo'lib, unda mazkur toifadagi transport xodimlarini tibbiy ko'rikdan o'tkazish qoidalarini hamda ushbu qarorga ilova sifatida keltirilgan reysdan (navbatchilikdan) oldingi tibbiy ko'rikdan o'tishi shart bo'lgan, ish faoliyati poezdlar harakat xavfsizligi, manyovr ishlari va temir yo'l tashishlari bilan bog'liq bo'lgan xodimlar qatorida drezina haydovchisi, temiryo'l – qurilish mashinalari mashinisti, parovozlar o't qalovchilari(kochegar), yo'lovchi vagonlar kuzatuvchilari(styuardlar) kabi o'ttiz uch turdagi lavozimlar sanab o'tilgan.

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirining 2021-yil 19-oktyabrdagi 31-son buyrug'iga ilova shaklida tasdiqlangan "Majburiy tibbiy ko'rikdan o'tmagan yoxud atrofdagilarga sil kasalligini yuqtirish xavfi mavjud bo'lgan shaxslarning bajarishi ruxsat etilmaydigan ishlar ro'yxati"da ham muayyan ishlarda ishlash uchun tibbiy ko'rikdan o'tishi lozimligi belgilangan. Mazkur ro'yxatga muvofiq davolash-profilaktika muassasalarida chaqaloqlar bilan bevosita muloqotda bo'lgan holda bajariladigan ishlar, bolalarga xizmat ko'rsatishi mumkin bo'lgan barcha davolash-profilaktika muassasalari, maktabgacha ta'lim tashkilotlari va bolalar uylarida bolalar bilan bevosita muloqotda bo'lgan holda bajariladigan ishlar, maktabgacha yoshdagi bolalarga xizmat ko'rsatishi mumkin bo'lgan ta'lim va sport muassasalarida, shuningdek ushbu maqsadlarda tashkil etilgan to'garaklarda bolalar bilan bevosita muloqotda bo'lgan holda bajariladigan ishlarga majburiy tibbiy ko'rikdan o'tmagan yoki sil kasali bo'lgan shaxslarning ishlashi taqiqlangan.

Tibbiy ko'riklar tashkilotga tibbiyot xizmati ko'rsatuvchi davolash-profilaktika muassasalari tomonidan, agar ular bo'lmagan taqdirda tashkilot joylashgan joydagi hududiy davolash-profilaktika muassasasi tomonidan o'tkaziladi. Masalan, Temir yo'l transporti xodimlarining tibbiy ko'rigini tashkil etish va o'tkazish qoidalariga asosan tibbiyot muassasalari (davlat va nodavlat tibbiyot tashkilotlari) bilan kelishilgan ish jadvaliga asosan tibbiy ko'rik punktlarida xodimlarning tibbiy ko'riklarini tashkil etilishi belgilangan[7].

Xodimlarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomda ularni tibbiy ko'rigini tashkil qilish bilan bog'liq qoidalar o'rin olgan. Xususan, ushbu nizomga ko'ra, ish beruvchi tibbiy ko'rikdan o'tkazilishi shart bo'lgan xodimlarning lavozim kontingentidan kelib chiqib hududiy DSENM va tashkilotning kasaba uyushmasi qo'mitasi bilan kelishgan holda tibbiy ko'rikdan o'tishi shart bo'lgan xodimlarning ro'yxatini tuzadi va tibbiy ko'rikni o'tkazuvchi davolash-profilaktika muassasasiga taqdim etadi. Xodimlarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish maqsadida tibbiy ko'rikni o'tkazuvchi davolash-profilaktika muassasasining rahbari

tomonidan hududiy DSENM bilan kelishilgan holda xodimlarning tibbiy ko'rikdan o'tkazishning kalendar rejasi tuziladi. Dastlabki tarzda tibbiy ko'rikdan o'tishi shart bo'lgan xodimlar tashkilot tomonidan tibbiy ko'rikni o'tkazuvchi davolash-profilaktika muassasasiga taqdim etilgan yo'llanma asosida tibbiy ko'rikdan o'tkaziladi. Xodim tibbiy ko'rikdan o'tish uchun pasporti yoki shaxsini tasdiqlovchi boshqa hujjati bilan kelishi lozim bo'ladi[8].

Xodimlarni majburiy tibbiy ko'rikdan o'tmaganligida uning aybi bor yoki yo'qligi ham muhim ahamiyatga ega. Amaliyotda ko'pincha pedagog xodimlar tomonidan o'zlariga bog'liq bo'lmagan holda (tibbiy ko'rikdan o'tish bilan bog'liq xarajatlar moliyalashtirilmasligi sababli) tibbiy ko'rikdan o'tmaslikda tizimli muammolar kelib chiqmoqda. Vaholanki, O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 292-moddasiga tibbiy ko'rikdan o'tish bilan bog'liq holda xarajatlar ish beruvchi tomonidan qoplanishi hamda xodimlar chiqimdor bo'lmashliklari belgilab qo'yilgan.

Xodimlarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomga asosan umumta'lim maktablari, maktabgacha ta'lim va boshqa muassasalarning bevosita bolalarga ta'lim yoki tarbiya berish bilan shug'ullanuvchi pedagoglar va boshqa xodimlar tibbiy ko'rikdan yilda kamida bir marta o'tkaziladi. Hozirgi kunda joylarda yangi o'quv yiliga tayyorgarlik ko'rilayotganligi munosabati bilan bevosita bolalarga ta'lim yoki tarbiya berish bilan shug'ullanuvchi pedagoglar va boshqa xodimlarni tibbiyot muassasalarida navbatdagi bepul majburiy tibbiy ko'rikdan o'tkazishda tibbiyot muassasalari tomonidan turli miqdordagi to'lovlar talab qilinib xodimlardan undirib kelinayotganligi holatlari uchramoqda. Xodimlarning huquqlarini ta'minlash maqsadida 2024-yil 26-avgustda Iqtisodiyot va moliya, Sog'liqni saqlash hamda Maktabgacha va maktab ta'limi vazirlarining o'rinbosarlari imzolagan xatiga ko'ra, majburiy tibbiy ko'rikdan o'tish xarajatlari uchun joriy yilda davlat budjetidan 71,4 mlrd so'm ajratilgan, ushbu mablag'lar tibbiyot muassasalarining tegishli xarajatlar smetalarida rejalashtirilgan. Barcha quyi bo'g'in rahbarlariga majburiy tibbiy ko'rikdan o'tish chog'ida pedagoglardan haq olmaslikni qat'iy ta'minlash topshirig'i berilgan[9]. Shunga qaramasdan, davlat tomonidan qoplanadigan yillik majburiy "medosmotr"ga pedagoglar o'z hisobidan 140 ming so'm atrofida to'lov qilyapti. Poliklinika va SESdagilar esa tibbiy ko'rik uchun budjetdan pul o'tkazilmaganini aytmoqda. Toshkent viloyati Qibray tumani 9-maktabda ishlovchi bir guruh o'qituvchilar majburiy tibbiy ko'rik uchun pul olinayotganidan norozi. Pedagoglarga ko'ra, ular har yili shu muammo bilan yuzlashadi, ammo holat o'zgarmaydi[10].

Bunday misollar amaliyotda ko'p uchraydi. Masalan, ijtimoiy tarmoqlarda pedagoglardan majburiy tibbiy ko'rik uchun Sanepidqo'mita tuman, shahar bo'limlari xodimlari tomonidan 100 ming so'mdan pul undirayotganligi to'g'risida xabar tarqaldi. Unga munosabat bildirgan Sanepidqo'mita Samarqand viloyat boshqarmasi holatga Sanepidqo'mita Toyloq tuman bo'limi tomonidan 2024-yilning 15 yanvarida tuman maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi rahbari nomiga tibbiy ko'rik xarajatlarini qoplab berishi bo'yicha xat berilgan bo'lishiga qaramasdan, hozirgi davrga qadar shartnoma qilinmay kelinayotganligi, shu sababli o'z vaqtida davriy tibbiy ko'rikdan o'tmagan xodimlar vaqtinchalik ishdan chetlatilishi yoki ma'muriy javobgarlikka tortilishini bilgan holda o'z ixtiyori va arizasiga asosan belgilangan preyskurant asosida to'lov qilinib laborator tibbiy ko'riklardan o'tkazilib kelinayotganligini ta'kidlagan[11]. Natijada esa SES xodimlari "medosmotr"dan o'tishga majburlab, maktablarga jarima yozib ketish amaliyotga kirgan. Shuningdek, pedagog xodimlar qo'shimcha chiqim qilishganligi sababli majburiy tibbiy ko'rikdan o'z vaqtida o'tishmaydi. Bu esa xodimlarni ishdan chetlashtirib turishga olib keladi. Ish beruvchilar SESning jarimalaridan qutulish uchun ishdan chetlashtirishni amalga oshirish mumkin. Ishdan chetlashtirilgan davr uchun ish haqi to'lanmasligi sababli xodimlarning huquqlari buzilishiga olib keladi.

Xodimlarni majburiy tibbiy ko'rikdan o'tkazishda yana bir muammo hali ishga qabul qilinmagan ishga kirayotgan shaxslarni dastlabki tibbiy ko'rikdan o'tish bilan bog'liq xarajatlarni qoplashdir. O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 360-moddasida dastlabki tibbiy ko'rikdan o'tkazish mehnat shartnomasi tuzayotganda, 414-moddada o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan shaxslar majburiy tibbiy ko'rikdan o'tganidan keyin ishga qabul qilinadi, nogironligi bo'lgan shaxslar faqat dastlabki majburiy tibbiy ko'rikdan o'tganidan keyin ishga qabul qilinadi, voyaga yetmaganlar 500-moddada transport xodimlari ishga qabul qilinish chog'ida, 501-moddada pedagog xodimlar ishga qabul qilish chog'ida deb ko'rsatilgan.

Yana bir muammo shundaki, mehnat shartnomasi tuzgunga qadar xodimni tibbiy ko'rikdan o'tkazish uchun xarajatlarni qoplash masalasi bo'yicha tushunmovchiliklar mavjud. Chunki ish beruvchi mehnat munosabatlari mavjud bo'lgan taqdirdagina tibbiy ko'rik uchun xarajatni amalga oshirishi mumkin. Shuning uchun amaliyotda tibbiy ko'rikdan o'tish bilan bog'liq xarajatlar bevosita ishga kirayotgan shaxsning o'zi tomonidan to'lanadi, tibbiy xulosa ijobiy bo'lganda va ishga qabul qilish rasmiylashtirilganidan keyin qilingan xarajatlar qoplab beriladi[12].

O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 360-moddasi ish beruvchiga o'z hisobidan xodimni tibbiy ko'rikdan o'tkazish majburiyatini yuklaydi, shu sababli ishga kirayotgan xodim ushbu maqsadlar uchun sarflanadigan xarajatni qoplatish huquqiga ega. Bundan tashqari ishga kirayotgan shaxs va ish beruvchi o'rtasida hali mehnat shartnomasi tuzilmagan bo'lsada, bu Mehnat kodeksini tatbiq qilish uchun to'sqinlik qilmaydi, chunki mehnat qonunchiligi ishga joylashtirishga oid munosabatlarni ham tartibga soladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, ishdan chetlashtirish mehnat shartnomasi tuzgan va uning asosida ishni bajarayotgan xodimga nisbatan amalga oshirilishi bois mazkur shaxslarga nisbatan ishdan chetlashtirishni qo'llash mumkin emas.

Dastlabki tarzda tibbiy ko'rikdan o'tishi shart bo'lgan xodimlar tashkilot tomonidan tibbiy ko'rikni o'tkazuvchi davolash-profilaktika muassasasiga Xodimlarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomning 6-ilovasida keltirilgan shaklga muvofiq taqdim etilgan yo'llanma asosida tibbiy ko'rikdan o'tkaziladi. Fikrimizcha, Nizomning ushbu qoidasi dastlabki tibbiy ko'rikdan o'tish bilan bog'liq tashkiliy ishlar hamda xarajatlar ham ish beruvchining hisobidan amalga oshirilishi lozimligini belgilagan.

Ish beruvchilar tomonidan tibbiy ko'rikdan o'tish bilan bog'liq xarajatlarning to'lanmasligi sababli xodim tibbiy ko'rikdan o'tmaganda unga nisbatan ishdan chetlashtirishni qo'llashga to'sqinlik qilmaydi. Biroq O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 152-moddasiga muvofiq xodimning aybi bo'lmagan holda ishdan chetlashtirilganida mazkur davr uchun xodimning o'rtacha oylik ish haqi saqlanib qolishi belgilangan.

Ayrim hollarda tibbiy ko'rikdan o'tmaganlik uchun xodim javobgar hisoblanmaydi. Xususan, ish beruvchi tomonidan o'z vaqtida xodimga tibbiy ko'rikdan o'tish uchun yo'llanma berilmaganligi, xodimni mehnat vazifalarini bajarishdan ozod qilinmaganligi, tibbiy ko'rikdan o'tkazuvchi tashkilotlarga ko'rik uchun o'z vaqtida pul o'tkazib berilmaganligi shular jumlasidandir.

Rossiya Federatsiyasi Mehnat kodeksining 157-moddasiga muvofiq bunday hollarda ishdan chetlashtirishning butun davri uchun bekor turib qolganlik bo'yicha haq to'lanadi. Agar xodim davolash-profilaktika muassasasining aybi bilan tibbiy ko'rikdan o'tmagan bo'lsa, ish beruvchi mazkur muassasani javobgarlik masalasini qo'yishi mumkin, ya'ni xodimga to'lagan xarajatlarni qoplatib olishga haqli bo'ladi[13].

O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 226-moddasi birinchi qismi to'rtinchi xatboshisiga ko'ra tibbiy ko'rikdan o'tmaslik xodimning aybisiz yuz bergan bo'lsa xodim ishdan

chetlashtirilgan davr har yilgi asosiy mehnat ta'tilini va bitta tashkilotda yoki tarmoqda ko'p yillik ish staji uchun qo'shimcha ta'til olish huquqini beruvchi ish staji jumlasiga kiradi.

O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 280-moddasi birinchi qismi o'n yettinchi xatboshisiga ko'ra xodimlar majburiy tibbiy ko'riklardan o'tgan davr xodimning majburiy progul qilgan davri uchun kafolatli to'lovlarni amalga oshirishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 360-moddasiga asosan xodimlar majburiy tibbiy ko'riklardan o'tishdan bo'yin tovlashga haqli emas. Ish beruvchi majburiy tibbiy ko'rikdan o'tmagan yoxud majburiy tibbiy ko'rik natijalariga ko'ra tibbiy komissiyalar tomonidan berilgan tavsiyalarni bajarishdan bo'yin tovlagan shaxslarni ishdan chetlashtirishi shart.

Huquqshunos N.N. Sheptulinaning qayd etishicha, mehnatni muhofaza qilish talablarini buzishning nisbatan keng tarqalganlaridan biri majburiy tibbiy ko'rikdan o'tmagan xodimlarni ish bajarishga qo'yishlari hisoblanadi[14]. Shunday qilib, ish beruvchilar nafaqat tibbiy ko'rikni o'tkazishni tashkillashtirish majburiyati, balki tibbiy ko'rikdan o'tmagan xodimlarni ishga qo'ymaslik majburiyatini ham buzadi.

Ish beruvchi xodimni tibbiy tekshiruvdan o'tguncha va ishni bajarish uchun sog'lig'i holatiga ko'ra loyiq ekanligi haqida tibbiy xulosani olmagunga qadar xodimni ishdan chetlashtirib turadi. Tibbiy ko'rikdan o'tmagan xodimni ishdan chetlashtirish vaqtinchalik chora hisoblanadi. Xodimni mazkur asosga ko'ra ishdan chetlashtirishning tartibi qonunchilikda aniq belgilanmagan. Amaliyotda ko'pincha ishdan chetlashtirish holatlari vujudga kelganda ular hujjatlashtirilishi lozim. Misol uchun xodimning tibbiy ko'rikdan o'tmaganligi haqida tushuntirish xati, vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik varaqasi, xodimni tibbiy muassasaga tibbiy tekshiruvga bormaganligi haqidagi xabarnomasi, xodimning tibbiy tekshiruvdan bosh tortganligi haqidagi dalolatnoma, xodimni bevosita rahbarining bildirishnomasi bo'lishi mumkin.

Shuningdek reys oldi tibbiy ko'riklarda xodimda kasallik, charchoq, smenalararo dam olish yetarlicha bo'lmagan taqdirda xodimdagi o'zgarishlar bartaraf qilingunga qadar ishdan chetlashtiradi.

Huquqshunos G.Yusupxanovanning qayd etishicha, dastlabki, davriy yoki boshqa majburiy tibbiy ko'rikdan o'tmagan hollarda qaytadan tibbiy ko'rikdan o'tgunga qadar xodim ishdan chetlashtiriladi. Majburiy tibbiy ko'rikdan o'tmaganligi (o'tishdan bo'yin tovlaganligi) sababli xodimni ishdan chetlashtirish haqidagi buyruqlarda, masalan, 2023-yilning 22-oktyabridan majburiy tibbiy ko'rikdan o'tgunga qadar" deb ko'rsatilgan. Buyruqqa asos sifatida 2023-yil 21-oktyabrdagi 7-sonli poliklinika tibbiy komissiyasining xabarnomasi, Zamon AJ Ichki mehnat tartibi qoidalarining 4.6-bandi, Mehnat kodeksining 151, 360-moddalari keltirilgan. Ya'ni buyruqda ishdan chetlashtirishning sabablari va muddatlari aniq ko'rsatilishi lozim.

Agar xodim tibbiy ko'rikdan o'tishdan bosh tortsa yoki buning uzrli sabablari bo'lmasa uni ishdan chetlashtirish to'g'risida buyruq chiqarish kerak. Buyruqda ishdan chetlashtirishga xizmat qilgan holatlar, shuningdek asoslovchi hujjatlar sanab o'tilishi kerak. Ta'kidlash zarurki, bu yerda aynan belgilangan muddatda tibbiy ko'rikdan o'tmaganlik ishdan chetlashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun agar ish beruvchi buyruqda Mehnat kodeksining 151-moddasidagi tibbiy ko'rikdan o'tmaganlikni keltirib o'tishning o'zi ham yetarli hisoblanadi. Huquqshunos L.V.Truxanovning fikricha, ish beruvchi buyruqda "tibbiy ko'rikdan o'tgunga qadar" deb ko'rsatmay, qo'shimcha ravishda aniqlik kiritish kerak, masalan, xodim tibbiy ko'rikdan o'tib kelishi kerak bo'lgan aniq muddatni ko'rsatish kerak[15]. Mazkur olimning tibbiy ko'rikdan o'tmaganlik uchun ishdan chetlashtirish muddatlarini aniq sanalar bilan ko'rsatish haqidagi fikr-mulohazalarini qo'llab-quvvatlash mumkin.

Yuqorida majburiy tibbiy ko'rikdan o'tish tartibini buzganlik uchun ishdan chetlashtirishga oid normalarni tahlil qilgan holda O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2023-yil 20-noyabrdagi "Sudlar tomonidan mehnat shartnomasini bekor qilishni tartibga soluvchi qonunchilikni qo'llash amaliyoti to'g'risida"gi 26-sonli qaroriga majburiy tibbiy ko'rikdan o'tishdan bo'yin tovlash yoki tibbiy ko'rikdan o'tish muddatlarini buzish yoxud tibbiy komissiyalar tomonidan berilgan tavsiyalarni bajarishdan bo'yin tovlash mehnat intizomini buzish ekanligiga, xodimning intizomiy javobgarlikka tortilishi uni ishdan chetlashtirish uchun to'sqinlik qilmasligiga sudlarning e'tibori qaratilishi lozimligiga oid qoida bilan to'ldirish taklif etiladi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 151-moddasida ishdan chetlashtirish asosi sifatida qayd etilgan "majburiy tibbiy ko'rikdan o'tmaganda" jumlasini "majburiy tibbiy ko'rikdan o'tishdan xodimning bo'yin tovlashi yoki ish beruvchining majburiy tibbiy ko'rikdan o'tish bilan bog'liq talablarini bajarmasligi oqibatida dastlabki va davriy tibbiy ko'rikdan belgilangan muddatda o'tmaslik" deb tushunish taklif etiladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2012 y., 35-son, 407-modda.
2. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 15.07.2023-y., 09/23/290/0476-son.
3. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2010-y., 3-4-son, 27-modda.
4. O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksiga ilmiy-amaliy sharh. Sh.Ismoilovning tahrir ostida. 3-jild. –Toshkent: "Adolat", 2025. –B. 308.
5. Должны ли проходить обязательные медицинские осмотры работники образовательной организации, если их работа не связана средними или опасными условиями труда? https://www.garant.ru/consult/work_law/1677035/
6. https://www.eseur.ru/mariel/Razyasneniya_Minzdrava_RF_o_medosmotrah_rabotniko_v_zanyatih_na_rabotah_v_organizaciyah_deyatelnost_kotorih_svyazana_s_vospitaniem_i_obucheniem_detey/
7. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 30.09.2022-y., 10/22/3390/0891-son.
8. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2012-y., 35-son, 407-modda.
9. O'qituvchilar tibbiy ko'rigi uchun tibbiyot muassasalariga 71,4 mlrd. so'm mablag' o'tkazib berilgani ma'lum bo'ldi.<https://xalqtaliminfo.uz/post/822>
10. <https://kun.uz/kr/news/2024/10/28/qibrayda-bepul-tibbiy-korik-uchun-oqituvchilardan-pul-olinayotgani-aytilmoqda>
11. <https://aniq.uz/yangiliklar/pedagoglardan-majburiy-tibbiy-kurik-uchun-pul-undirayotganligi-rostm>
12. Пушкар Я.А.Отстранение от работы как основание приостановления трудового правоотношения. –М.: Академия труда и социальных отношений, 2007. –С.96.
13. Трудовой кодекс Российской Федерации. https://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_34683/
14. Шептулина Н.Н.Ответственность должностных лиц организации за нарушения требований охраны труда//Трудовое право.2000, №3. –С.70.
15. Труханович Л.В., Щур Д.Л.Медицинское осмотры работников. –М.: Финпресс, 2004. –С.46.